

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKSI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**FIZIKA – MATEMATIKA FAKULTETI
“5110100- Matematika o'qitish metodikasi”**

Ta'lim yo'nalishi

KURS ISHI

MAVZU:ALGEBRANI O'QITISHDA MUAMMOLI TA'LIM

Bajardi: Saidova Shohista

Tekshirdi: p.f.d. Yunusova D.

Reja:

Kirish

1-Bob. Pedagogikanazariyasivaamaliyotidamuammolita'lim
Metodlari.

1.1 Muammo tushunchasi va uning turlari

1.2 Muammoli ta'lim.

2-Bob. Matematikani o'qitishda muammoli vaziyatlar .

2.1 Algebrani o'qitishda muammoli vaziyatlar.

2.2 Geometriyani o'qitishda muammoli vaziyatlar.

3-Bob. Matematikani o'qitishda muammoli mashqlar.

3.1 Algebrani o'qitishda muammoli mashqlar .

3.2 Geometriyani o'qitishda muammoli mashqlar.

Xulosa:

Lug'at:

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

KIRISH

S.L.Rubinshteyn birinchilardan umumiy aqliy rivojlanish borasida qilingan izlanishlarni o'rganishga chaqirganlardan biridir. U ruhshunoslikdagi faoliyat toifasini ruhiy izlanishning ob'ekti va maqsadi qilib kiritdi va asosladi. **Faoliyat nazariyasi asosida Rubinshteyn** faoliyat tushunchasini subyektdan obyektga o'tish deb kiritadi. Rubinshteyn faoliyatning ikkinchi bosqichi obyektдан subyektga qarab borgan aloqadan deb hisoblaydi. Rubinshteynning diqqat markazida, inson faoliyat jarayonida faqatgina o'ziga xos bo'lgan shaxs sifatida o'zining xususiyatlarini namoyon etib qolmay, balki undagi ruhiyatning shakllanishi obyekt bo'lib aniqlanadi degan mazmuni turadi.

«Faoliyat», «harakat», «operatsiya» tushunchalarining fundamental psixologik tushunchalari A. N. Leontev ishlarida yoritilgan.

Faoliyat – subyektning bir-biriga bog'langan realligining o'zaro ta'sir ko'rsatishi deb bilgan A.N.Leontev, reallikning inson ongida aks ettirilishi – «ta'sir» ning natijasi bo'lmay, o'zaro ta'sir, ya'ni bir- biriga duch kelgan jarayonlarning natijasidir deb hisoblaydi .

A.N Leontev va Rubinshteynning o'qitish amaliyotidagi xulosalariga qaraganda mustaqil fikrlashni rivojlantirishda faoliyat shakllarining ishlanmasi va ishlatilishi, hamda ta'limdagi faoliyat tamoyillarining bir-biriga ketma-ket o'tkazilishi eng foydali va natijali yo'nalishdir.

B.P.Erdnievning dissertatsiyasi fikrlash muammosi rivojlanishining turli yo'llarini o'rganishga bag'ishlangan. Muallif tomonidan matematikani o'rganishda o'quvchilarda mustaqil fikrlashni shakllantirish uslubiyoti ishlab chiqilgan. Matematik masalalardan keng foydalanilsa, o'quvchilarda chuqurroq fikrlash, fikrlashdagi ketma-ketlik, mustaqillik, tanqidiylik kabi fikrlash xususiyatlarni tarbiyalashga imkon yaratadi. Erdniev o'quvchilarga ilmiy faraz qilishni o'rgatish, bir-biriga bog'lash, umumiyashtirish, qobiliyatlarni tarbiyalashda matematik masalalardan foydalanish uchun aniq misollarni keltiradi.

L.S.Vgodskiy fikrlashning rivojlantirish muammosini o'rganib, «yaqindan rivojlanish maydoni» fenomenini ilgari suradi. Bunda u o'quvchilarda mustaqil fikrlashni rivojlantirish uchun eng qulay sharoitlarni to'ish lozimligini tahkidlaydi. Vgodskiyning fikri bo'yicha, bolaning rivojlanishi bilimlarni o'zlashtirish jarayonisiz o'tmaydi, faqatgina o'quv axborotlarining to'plami (bilim, bilish) fikrlashni harakatlantiradi, bolalarni rivojlantiradi. o'z navbatida oxirgisi bilim va bilishni o'zlashtirish yukori darajada bo'lishiga dastlabki shart hisoblanadi.

L.S.Vgodskiydan keyin psixolog va didaktiklarning ko'pchiligi o'rgatish – rivojlanish manbasi, o'quvchilarning **bilimi** va **bilishi** – ularning rivojlanishi uchun muhim shartlaridan biridir deb hisoblaydilar. Bunda o'qitish jarayonida «yaqindan rivojlantirish maydoni»ni ko'zda tutish muhimdir, ya'ni o'quvchilarning egallagan rivojlanish darajasini e'tiborga olish va ularni keyingi yengilroq maydonga siljitish kerak. Ushbu maydonni aniqlash uchun L.S.Vgodskiy ikki ko'rsatkichdan foydalanishni tavsiya etadi:

- 1) bolaning yangi bilimlarini kattalar yordamida egallashi;
- 2) boladagi o'zlashtirilgan bilimlarni masalalarni mustaqil yechishga qo'llash, tadbqiq etish qobiliyati.

Vgodskiyning takliflarini amaliyotda qo'llaganda o'qituvchi:

- a) o'quvchilarga masalani yechilishini ko'rsatib, xuddi shuncha o'xshash masalani o'zlariga yechish uchun beradi;
- b) boshlab qo'ygan masalani o'quvchi yechib tugatishni tavsiya etadi;
- v) murakkabroq masalalarni yechishni o'quvchilarga tavsiya etadi;
- g) masalaning yechilish printsipini tushuntiradi, yordamchi savollar beradi, muammolar qo'yadi, masalani qismlarga bo'ladi va xokazo.

Bundan tashqari masalani yechish jarayonida «yaqindan rivojlantirish maydoni»ni aniqlash uchun tavsiya etilayotgan usullardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi deb hisoblaymiz.

Didaktlar o'zlarining izlanishlarida ta'lim olish jarayonini va fikrlashning rivojlashini uzviy bog'lanish birligida ko'radilar. Ijodiy fikrlash rivojlanishi tashqi shartlarning o'quvchilardagi ichki imkoniyatlari bilan muvofiq bo'lishida

ifodalanadi. Ijodiy fikrlashni rivojlanishi muammolarining ta'limiy uslublari bilan bog'lanishi e'tiborda muhimdir. Tahlimning nazariy va amaliy uslublarining keyingi rivojlanishida B.S.Esenov, I.Ya.Lerner, M.N.Skatkin va boshqalar katta xissasini qo'shgan.

Izlanishimizda bizlar I.Ya.Lerner va M.N.Skatkin ishlab chiqqan uslublar turkumlariga tayanamiz. Ushbu turkumlashda uslublar quyidagilarga bo'linadi:

- 1) tasvirli tushuntirish yoki retsentli axborot uslubi
- 2) reproduktiv (yodda saqlash, eslash) uslubi
- 3) muammoli ifodalash uslubi
- 4) qisman izlanish uslubi
- 5) izlanish uslubi

Ta'lim uslublarining ushbu turkumi uslublarini yodga tushurish va mustaqil fikrlash faoliyatlarining nisbatiga qarab bo'lishga imkoniyat yaratadi.

Shunday qilib, tasvirli tushuntirish uslubi uchun tayyor bilimlar va faoliyat uslublarini eslash (yodda saqlash) kiradi. Muammoli ifodalash uslubi esa mustakil fikrlash elementlarining birga qo'shilib kelishi va aniq bilimlarni yodda saqlashni o'z ichiga oladi. qisman izlanish uslubida ijodiy fikrlash va yodda saqlash elementlari qo'shilib keladi. Izlanish uslubi esa ijodiy faoliyatni taxmin etadi.

Ushbu uslublar bilimlarni o'zlashtirish, bilim va ko'nikmalarni shakllantirishni ta'minlaydi, o'quvchilarda ijodiy faoliyat tajribasini egallashga imkon yaratadi, ularda emotsional (xis, tuyg'u) madaniyatini tarbiyalashga xizmat qiladi. o'quvchida mustaqil fikrlashni shakllantirishda muammoli ta'lim katta ahamiyatga egadir.

Kurs ishining maqsadi: Algebra o'qitishda mu'ammolari ta'limni jarayonini tashkil etishni o'rganish.

Kurs ishining ob'ekti: Umumiy o'rta ta'lim maktablari algebra fanini o'qitishda muammoli ta'lim berish jarayoni.

Kurs ishining predmeti: Algebra o'qitishda muammoli ta'lim tashkil etish.

Kurs ishining vazifalari: 1-Bob.

Pedagogikanazariyasivaamaliyotidamuammolita'lim
Metodlari.

1.1 Muammo tushunchasi va uning turlari

1.2 Muammoli ta'lim.

2-Bob. Matematikani o'qitishda muammoli vaziyatlar .

2.1 Algebrani o'qitishda muammoli vaziyatlar.

2.2 Geometriyani o'qitishda muammoli vaziyatlar.

3-Bob. Matematikani o'qitishda muammoli mashqlar.

3.1 Algebrani o'qitishda muammoli mashqlar .

3.2 Geometriyani o'qitishda muammoli mashqlar.

yuqoridagilarni yoritib berish

1-Bob. Pedagogikanazariyasivaamaliyotidamuammolita'immetodlari

1.1 Muammotushunchasivauningturlari

Muammoli ta'lim maqsadi – o'qituvchi tomonidan taklif etilgan, maxsus bilim orttirishga xizmat qiladigan masala – muammoni o'quvchilar o'z aql-idroklari bilan yechishdan iborat.

M.I.Maxmutov muammoli ta'limni quyidagicha tavsiflaydi: muammoli o'qitish mantiqiy fikrlar tadbirlari (tahlil, umumlashtirish) hisobga olingan o'rgatish va dars berish usullarini qo'llash qoidalari va talabalarni tadqiqot faoliyatlari qonuniyatlarining (muammoli vaziyat, bilishga bo'lgan qiziqish, talab v.x.k) tizimi.

Muammoli o'qitishning mohiyatini, o'qituvchi tomonidan talabalarni o'quv ishlarida muammoli vaziyatni vujudga keltirish va o'quv vazifalarini, muammolarini va savollarini hal qilish orqali yangi bilimlarni o'zlashtirish bo'yicha ularning bilish faoliyatini boshqarish tashkil etadi. Bu esa bilimlarni o'zlashtirishning ilmiy-tadqiqot usulini yuzaga keltiradi. Insonning bilish faoliyati jarayoni mantiqiy bilish ziddiyatlarini hal qilishdagi obektiv qonuniyatlari hamda didaktik tamoyil - muammolilikka tayanadi.

Psixolog va pedagoglar fikrlash muammoli vaziyat, kutilmagan xayrat va mahliyo bo'lishdan boshlanadi deyishadi. O'qitish sharoitidagi insonning ruxiy, emosional va hissiy holati unga fikrlash va aqliy izlanish uchun o'ziga xos turtki vazifasini bajaradi.

Muammoli vaziyatning mohiyati shuki, u talabaga tanish bo'lgan ma'lumotlar va yangi faktlar, hodisalar (qaysiki, ularni tushunish va tushuntirish uchun avvalgi bilimlar kamlik qiladi) o'rtasidagi ziddiyatdir. Bu ziddiyat bilimlarni ijodiy o'zlashtirish uchun harakatlantiruvchi kuchdir.

Muammoli vaziyatning belgilari quyidagilar:

- talabaga notanish faktning mavjud bo'lishi;
- vazifalarni bajarish uchun talabaga beriladigan ko'rsatmalar, yuzaga kelgan bilish mashaqqatini hal qilishda ularning shaxsiy manfaatdorligi.

Muammoli o'qitishni tashkil etishda o'qituvchi o'quv materialini: monolog; fikr yuritish va muhokama qilish usulida; dialogli bayon qiladi. Topshiriqlarni: evristik; tadqiqotli va programmali usullarda beradi.

Monologli bayon etish. O'qituvchi muammoli vaziyat sharoitida o'z ma'ruzasida yangi tushunchalar, faktlarning mazmun-mohiyatini tushuntiradi, talabalarga fanning tayyor xulosalarini aytib beradi.

Fikr yuritib bayon qilish metodi. Birinchi variant – o'qituvchi muammoli vaziyat yaratib, bor materialni tahlil qiladi, xulosalar chiqaradi, fikrlarni umumlashtiradi. Ikkinchi variant – o'qituvchi mavzuni bayon etishi borasida darsni suhbat – ma'ruza shaklidaolib boradi. Bunda bilim orttirish jarayonining mantiqiy asosida fikr yuritib, ilmiy izlanishning sun'iy mantiqini yaratadi.

Dialogli bayon metodi. Bunda o'qituvchi guruhdagi talabalar bilan muloqatda bo'ladi. O'qituvchi o'zi yaratgan muammoli vaziyatda muammoni o'zi qo'yadi va uni talabalar yordamidaechadi. Talabalar muammoni qo'yishda, taxminlarni oldinga surishda va gipotezalarni isbot etishda faol qatnashadi. Dars izlanishli suhbat, bayon shaklidaolib boriladi. Talabalarning faoliyatida o'qitishning reproduktiv va qisman-izlanish metodlari majmui mavjud bo'ladi.

Evristik topshiriqlar metodi. Bunda yangi qonuniyatlar, qoidalar o'qituvchi tomonidan, talabalarning ishtirokida ham emas, balki talabalar tomonidan o'qituvchi rahbarligidaochiladi. Bu metod evristik suhbat borasida muammoli masala va topshiriqlarni yechish yo'li bilan amalgaoshiriladi.

Tadqiqotli topshiriqlar metodi. O'qituvchi talabalar oldiga yuqori darajada muammoli nazariy vaamaliy tadqiqot topshiriqlarini qo'yadi. Talaba mustaqil mantiqiy fikr yuritib, yangi tushuncha va yangicha yondoshish usulining mohiyatini ochadi. Tadqiqot ishlarini tashkil etish shakllari turlicha bo'lishi mumkin: tajriba, faktlarni yijish, doklad tayyorlash, modullash.

Programmalashtirilgan topshiriqlar metodi. Bunda talabalar maxsus tayyorlangan didaktik vositalar yordamida yangi bilimlar oladi. Muammo uch tarkibiy qismdan iborat: ma'lum (berilgan vazifaasosida),

noma'lum (ularni topish yangi bilimlarni shakllantirishgaolib keladi) vaavvalgi bilimlar (talabalar tajribasi). Ular noma'lumni topishga yo'nalgan qidiruv ishlarini amalgaoshirish uchun zarurdir. Avvalo talabaga noma'lum bo'lgan o'quv muammosi vazifasi belgilanadi va bunda uning bajarilish usullari hamda natijasi ham noma'lum bo'ladi, shunda talabalar o'zlaridagi avval egallangan bilim va ko'nikmalargaasoslanib turib kutilgan natija yoki yechilish yo'lini izlashga tushadi.

Shunday qilib, talabalar biladigan vazifa va uni mustaqil hal kilinish usuli o'quv muammosi bo'laolmaydi, ikkinchidan, biror vazifaning yechilish usullarini va uni izlash vositalarini bilishmasa ham o'quv muammosi bo'laolmaydi.

O'quv muammosining muhim belgilari quyidagilar:

- yangi bilimlarni shakllantirishgaolib keladigan noma'lumning qo'yilishi;
- talabalarda noma'lumni topish yo'lida izlanishni amalgaoshirish uchun zarur bo'lgan muayyan bilim zahirasi bo'lishi.

O'quv muammosini yechish jarayonida talabalar aqliy faoliyatining muhim bosqichi uning yechilish usulini o'ylab topish yoki gipoteza qo'yish hamdagi gipotezani asoslashdir.

1.2 Muammoli ta'lim – bu didaktik tizim bo'lib o'quvchilarni muammoli xarakterdagi savollarni yechishga jalb qilishni nazarda tutadi. Psixologlar fikrlash muammoli vaziyatdagi savoldan boshlanadi deb isbotlaydilar. Shuning uchun muammoli vaziyat muammoli ta'limning asosini tashkil qiladi, muammoni yechish uchun sharoit yaratadi.

Vaziyat - bu ilmiy baxs- munozara orqali tushunchalarni tartibga solish uchun zaruriyatga chaqiruvchi jarayondir.

Muammoli jarayon – o'zining yechilishi uchun izlanishni talab qiladigan anglangan qiyinchilikdir. Berilgan savol qiyinchilik yaratsa va javob berishda o'quvchidan yangi bilim va fikriy faollik talab qilinsa, o'shanda muammoli vaziyat yaratiladi. Muammoli vaziyatda o'quvchilar e'tibori savollarning yechilishiga to'liq yo'naltiriladi, o'quvchilarning fikrlashi moyil qilinadi (to'g'irlanadi). Muammoni yechishda ushbu moyillik aniq maqsadga aylanadi.

Masalani yechish jarayonini batafsil ko'rib chikamiz. «**Masalani yechish**» termini – psixologik-pedagogik adabiyotda turli ma'nolarda ishlatiladi. Turli matnlarda masalani yechish deganda turlicha tushuniladi:

- masalaning maqsadiga yetganda, olingan natija;
- shu natijaga olib keladigan, mantiqiy o'zaro bog'langan xarakatlarning ketma-ketligi; bunda ketma-ketlik imkoniyat boricha «tejamli» bo'lib, hech qanday yo'naltiruvchi mulohazalarsiz tahmin etiladi, (mantiqiy tugatilmagan yechim):

- shaxsning masalani qabul qilib olganidan to to'liq natijaga erishguncha bo'lgan jarayondir. Bunda natija masala maqsadi (echish jarayoni)dir.

Shunday qilib, uslubiy adabiyotda masalani yechish deganda shu masala bilan bog'lik bo'lgan butun faoliyat shu masalani qabul qilishdan to boshqa masalaga o'tish yoki umuman boshqa ish turiga o'tishgacha bo'lgan faoliyat tushuniladi

«**Yechish**» terminini shunday tushungandagina masalaning ustida ishlashning ma'lum bo'lgan to'rt bosqichga ajratilishi ma'noga egadir. Ushbu bosqichlarni qisqagina ta'riflab o'tamiz.

Birinchi bosqich – axborotni qabul qilishda, masalaning shart va maqsadlarini anglashda ifodalanadi. Ushbu bosqichni masalani tahlil qilish bosqichi deb ham atashadi.

Ikkinchi bosqich – yechimini topish - ko'p murakkablikni o'z ichiga oladi. Ushbu bosqich masalani yechish rejasini topib olishni o'z ichiga oladi. Ko'pincha yechimini topish faoliyati yechish jarayonini egallab bir necha shakllar guruhlarini o'z ichiga oladi: holatning tahlili, yechish rejasining paydo bo'lishi, rejani bajarishga intilish, muvoffaqiyatsizlikning sababini aniqlash.

Echimini topish jarayoni to'liq bajarildi deb, shundagina aytish mumkinki, qachon yechimi to'liq topilsa yoki bajarilishi uchun bir necha aniq xarakterlar qolganligida va ushbu xarakterlar o'quvchida shubha tug'dirmasa. Shunday qilib, yechimni topish bu, bir rejani topishda emas, balki maqsadga olib keluvchi rejani topishda to'liq bajariladi. Ushbu bosqich har bir masala ustida ishlaganda ishtirok etadi. Ammo ko'p xollatlarda masala yechuvchi tomonidan ushbu bosqich anglanmay qoladi, chunki bu bosqich yashirin xarakterda namoyon bo'ladi.

Uchinchi bosqich – yechimning shakllanishi, rejaning bajarilishi – shaxsning fikricha eng tejamliroq, masala shartlaridan maqsadga olib keluvchi xarakterlar ketma-ketligini bajarishdan iborat. Bunda ma'lum bo'lgan chorasiz yo'llar tushirilib qolinadi. Bu yo'llar bundan oldingi bosqichda ahamiyatga ega bo'lgan bo'lsada ushbu bosqichda tushirilib qoldiriladi.

Ikkinchi va uchinchi, birinchi va ikkinchi bosqichlarning chegaralari taxminiy bo'lsada, masala yechilayotganda ushbu chegaralar aniq namoyon bo'ladi. Ushbu bosqich qisqartirilgan xarakterda bo'lishi mumkin; oxirgi xarakter shundagina o'rinli bo'ladi, qachon natijaga olib keluvchi hamma xarakterlar oldingi bosqichda bajarilgan bo'lsa, o'quv amaliyotida uchinchi bosqich o'quvchi tomonidan masalaning og'zaki yoki yozuvda yechilish jarayonida tashqi ko'rinishida namoyon bo'ladi. Shunday qilib ushbu bosqichda «tugallangan», «oxirgi», «toza nusxali» u yoki bu uslub orqali ob'ektlashgan yechim xosil bo'ladi.

To'rtinchi, so'nggi bosqich. Masalaning ustida ishlashning ushbu bosqichi kelib chiqqan natijaning to'g'riligini tekshirish va chamalab ko'rmoqni (ammo tekshirish yechimning ajralmas qismi bo'lib kelmaydi), boshqa yechim imkoniyatlarini topishni, ularni taqqoslash, topilgan yechimning foydasi va kamchiligini aniqlash, masalani yechish jarayonida foydalanilgan va kelajakda foydalanish mumkin bo'lgan usul va uslublarni ajratish va ularning o'quvchi yodida qolishi, topilgan natijaga ko'maklashuvchi matematik xarakterdagi natijalarni aniqlashni tahlil qiladi. Muammoli vaziyatni tashkil qilishda quyidagi didaktik maqsadlarni hisobga olish zarur: o'quv materialiga talabalar diqqatini jalb qilish, ularning bilishga bo'lgan qiziqishini uyg'otish, talabalarning bilish faoliyatini jonlantirish, ularni intellektual zo'riqish mashaqqatlariga olib kelish, talabalar tomonidan egallangan hozirgi bilim, malaka va ko'nikmalar kelajakda yuzaga keladigan bilishga bo'lgan talablarini qondiraolmasligini ko'rsata bilish hamda talabalarga o'quv muammolarini tahlil qilishga, uning yechilishidagi eng ratsional yo'llarni aniqlashda yordam berish kerak.

Adabiyotlarda muammoli vaziyat yaratishning quyidagi ko'p uchraydigan usullari qayd qilinadi:

- hodisalar, o'rganilayotgan tushunchalar mohiyatini tushuntirish uchun muammoli vazifalar qo'yish;
- olingan bilimlarning amaliy tadbiri usullarini topish uchun muammoli vazifa qo'yish;
- muammo hodisalar va faktlar orasidagi ziddiyatlar va nomuvofiqliklarni tushuntirib berishlariga undash;
- ilmiy tushunchalari va hayotiy tasavvurlari orasidagi ziddiyatni keltirib chiqaradigan fakt va hodisalarni tahlil qilishga undash;
- talabalarni fakt, hodisa, xatti-harakatlar, xulosalarni solishtirish, qiyos qilishga undash;
- talabalarni go'yo tushunib bo'lmaydigan xarakterdagi va fan tarixida ilmiy muammoning qo'yilishiga sabab bo'lgan faktlar bilan tanishtirish.

Muammoning murakkabligi, talabalarni bilim saviyasi va malakasi, ularning ijodiy faoliyati ko'nikmalari, didaktik maqsadga yo'nalganligiga qarab muammoli o'qitishda talaba va o'qituvchi o'zaro munosabatlarining turli variantlari bo'lishi mumkin, ya'ni muammolilikning turli darajalari amalda bo'lishi mumkin.

Pedagogikaga oid adabiyotlarda asosan muammolilikning uch daraja haqida fikr yuritiladi:

Birinchi darajada o'qituvchi o'zi muammoni qo'yadi, uni shakllantiradi va muammo mustaqil ravishda uning yechilish yo'lini qidirishga yo'naltiradi.

Ikkinchi darajada o'qituvchi faqat muammoli vaziyatni vujudga keltiradi, talabalar esa muammoni mustaqil shakllantiradilar va echadilar.

Uchinchi daraja-oliy sath bo'lib, unda o'qituvchi shunday qoidani ko'zda tutadi: muayyan muammoni ko'rsatib bermaydi, balki unga muammo «ro'baro» qiladi hamda ularni mustaqil ijodiy faoliyatga yo'naltiradi, ularni boshqaradi va natijani baholaydi. Talabalar esa muammoni mustaqil anglaydilar, uni shakllantiradilar, uning yechilish usullarini tadqiq qiladilar.

Muammoli o'qitish etarli darajada samarali bo'lishi uchun u yaxlit o'quv-tarbiya jarayonining uzviy qismi bo'lishi kerak. Muammoli leksiyalar o'tkazish jarayonida talabalarda ijodiy faoliyatga zarur bo'lgan motivlar, qimmatli yo'l-yo'riqlar va yo'llanmalarining shakllanganligi muhim o'rin egallaydi. Leksyani o'tkazish uchun shunday tayyorgarlik ko'rish kerakki, talabalar tayyor bilimlarni chaqqonlik bilan harakat usullariga aylantira olsin. Bu didaktik maqsadga erishish uchun talabalarni yechimlarni qanday shakllantirishlariga, tushunchalar yechimining qanday usullari borligiga, u yoki bu ifoda qaysi talablar asosida qoniqtirilayotganiga, dastlabki omil, argumentlar hamdaxulosalarga diqqatni jalb qilish lozim.

Muammoli o'qitishning talablar darajasidagi sifatini ta'minlash, talabalar tomonidan o'zlashtirilgan axborotlar bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish maqsadida seminarlar o'tkazish mumkin.

Fikrlash usullarini rivojlantirishga qaratilgan seminar mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rishda o'qituvchi quyidagi masalalarni qamrab olgan va jiddiy o'ylangan ssenariysini ishlab chiqadi:

- talabalarning muammoni yechishda qatnashishi uchun etarli bo'lgan bilimlarini yuzaga chiqarish qobiliyatini hamda bilimlarni yuzaga chiqarish uchun zarur bo'lgan vazifalarni tavsiflash;
- talabalardagi bilimlarni yuzaga chiqarish asosida muammoga va muammoni ifodalashga kirishish;
- muammoni to'g'ri hal qilishning so'nggi xulosasi (qarori) - natijasini shakllantirish;
- masalani to'laligicha yechishni ta'minlaydigan muammoni shakllantirish;
- muammo tarkibidagi muammolarga javoblardan iborat oraliq xulosalarni shakllantirish;
- muammo tarkibidagi muammolarning yechilishida to'g'ri javoblarni ta'minlovchi muammo savollarini shakllantirish.

Seminar avvalida o'qituvchi tayyorlab kelgan savollari yoki vazifalaridan foydalangan holda, talabalarda seminarda qatnashish uchun etarli bo'lgan bilimlarni yuzaga chiqaradi.

Avval boshdanoq qo'yilgan muammoning talabalar tomonidan qabul qilinishini ta'minlash uchun muammoni qo'yishda uni yechish uchun urinib ko'rishni tashkil etish tavsiya etiladi. Bu bilan o'qituvchi kutilayotgan yechimni talabalar bilan tahlil qiladi, ularda ko'ringan qiyinchiliklarni aniqlaydi. Muammoni yechishdagi dastlabki urinish natijasida talabalar uni engilgina yechish mumkin emasligini aniqlaydilar. Bunda muammoli vaziyat talabalar uchun muammoni yechish usullarining keyingi izlanishini avj oldirish zarurligining ichki ruhiy asoslanishi bo'lib xizmat qiladi.

O'qituvchi muammoli savol qo'yib, unga javob olishi bilanoq to'g'ri va noto'g'ri javoblarni baholamasligi, balki talabalardan savollarga har tomonlama keng javob talab qilishi kerak. Agar talaba kutilgan muayyan javobni tayinli asoslay olmasa, bu javobgaxayrihoh bo'lgan boshqa talabalarni ham aniqlab,

ularga birgalikda shu javobni asoslashni taklif etadi. SHunday qilib, muammoli savolga javob topishni tashkil etish o'zida muntazam qo'yilgan qadamlar modulini birlashtiradi. Ular quyidagilar:

- muammoli savolni qo'yish;
- qo'yilgan savollarga javob topish vaasoslash bo'yicha talabalarning fikrlashga urinishlarini tashkil etish;
- javoblarning tanqidiy tahlilini tashkil etish, ularning kuchli va kuchsiz jihatlarini aniqlash;
- kelishilgan pozisiyani ishlab chiqish - eng to'g'ri javobni aniqlash maqsadida javoblarni o'zaro qiyos qilishni tashkil etish.
- keyingi muammoli savolni qo'yishga o'tish.

O'qituvchi tashkil etgan bunday mujassamlangan harakatlarni bajarish jarayonida talabalarning tafakkurlarida rivojlanish yuz beradi.

Muammoli o'qitishdan foydalangan holdagina talabalarda o'quv muammolari va kasbiy vazifalarini yechishda ilmiy tekshirish jihatdan yondashuvni tarbiyalash, mustaqil bilish malakasi va metodlarini shakllantirish mumkin. Muammoli o'qitishni qo'llash, bilishni tushunishni shakllantirishga yordam beradi, pedagogik ijod va kasbiy mahoratni rivojlantirishga psixologik va kasbiy tayyorlikni shakllantiradi.

Shunday qilib, muammoli o'qitish, o'quv jarayonini tashkil etishning shunday shakli, unda o'qituvchi boshchiligida muammoli vaziyat va bu vaziyatning yechilishidagi talabalarning samarali mustaqil faoliyati yuzaga keltiriladi.

Muammoli o'qitishni tashkil etish natijasida talabalarda kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalar hamda fikrlash qobiliyatlarini o'stirishning ijodiy imkoniyatlari yuzaga keladi.

Muammoli texnologiyani amalgaoshirish uchun quyidagilarga rioya qilish kerak bo'ladi:

- eng dolzarb, ahamiyatli vazifalarni tanlash;

- o'quv ishlarining barcha turlarida muammoli o'qitishning o'zigaxos xususiyatlarini belgilash;
- muammoli o'qitishning eng maqbul tizimini ishlab chiqish, darslik, o'quv va metodik qo'llanmalar, tavsiyanomalar yaratish;
- shaxsiy yondashuv va o'qituvchi mahorati.

Qo'yilgan muammoni yechishning ishchi bosqichlarini quyidagi tahminiy ketma-ketlikda ko'rsatish mumkin:

1. Muammoni yechishning umumiy yo'li va bosqichlarini o'ylab ko'ring.
2. Eng avval ko'rib chiqilishi lozim bo'lgan muammo bo'laklarini (yagona muammoni tahlil etish natijasida aniqlanadigan tarkibiy qismlarni) tanlab oling. SHundan keyin ularni ketma-ket ko'rib chiqing.
3. Qanday faktlar vaziyatli masala, topshiriqni yechishda yordam berishi mumkinligini o'ylab ko'ring.
4. Faktlarni olishga qulay bo'lgan manbalarni tanlab oling. Qanday axborot kerakligini aniqlang, shundan keyin birinchi navbatda tadqiq etish lozim bo'lgan ma'lumotlarni ajratib oling.
5. Muammoni yechishga kalit bo'ladigan turli fikr va g'oyalarni taklif eting.
6. Muammoni yechishga ko'maklashuvchi g'oya-fikrlarni tanlab oling.
7. G'oya-fikrlarni tekshirish va amalga oshirishning barcha imkoniyatlarini o'ylab ko'ring.
8. Tekshirishning eng maqbul yo'llarini tanlab oling. Tekshirishning eng maqbul yo'llarini tanlaganda, eng avval isbotlab bo'linganlarini tekshirish olish kerak.
9. Yechimni amalga oshirishga ko'maklashuvchi yoki to'sqinlik qiluvchi barcha mumkin bo'lgan tasadifiylklarni ko'z oldiga keltiring.
10. Uzil-kesil yechimni va uni amalga oshirish-bajarish yo'lini tanlang.

Bilish jarayonida aniq qo'yilgan savol yoki savollar kompleksi odatda muammo, bilish esa bir savolga topilgan javob yordamida ikkinchi bir savol javobga o'tish ketma-ketligi deb tushuniladi. Har qanday izlanish esa odatda «muammo»

«izlanish» «yechim» ko'rinishidagi ketma-ketlik orqali ifodalanadi. Bundan ko'rinadiki, aniq, ravshan qo'yilgan muammo uni hal etishda muhim ahamiyatga ega.

Matematikafanlarinio'rganishdaqandayturdagimuammolarniko'proqhaletish gato'g'rikelishinibilishuchunmuammolarqandayko'rinishlardauchrashihaqidama'lu motgaegabo'lishkerak.

Muammolarni quyidagi uchta belgi orqali turlarga bo'lish mumkin : muammoavvaldan ifodalanganligi; bu muammoni hal etish uslubining mavjudligi; yechim haqidagi tasavvurning qanchalik to'liqligi.

Keltirilgan belgilarning ma'lum (+) yoki noma'lum (-) ligiga qarab muammolarni quyidagi turlargaajratish mumkin:

Muammo turlari	Muammo aniqlangan	Muammoni hal etish uslubi	Muammo yechimi
1	+	+	+
2	+	+	-
3	+	-	+
4	+	-	-
5	-	+	+
6	-	+	-
7	-	-	+
8	-	-	-

Birinchi to'rt turdagi muammolar – aniq muammoli vaziyatlardir. Bularda muammooldindan qo'yilgan bo'lib, ularning bir-biridan farqi muammoni hal etish uslubi ma'lumligi va yechim haqidagi tasavvurning mavjudligida.

Qolgan to'rt turdagi muammolar – noaniq muammoli vaziyatlardir.

Birinchi turdagi muammoni *ko'rgazmali masaladeb* yuritiladi. Bunda savol, uning javobi, javobni topish yo'llari berilgan bo'lib, bunday masalalarni hal etish jarayonini o'quvchilar puxta o'zlashtirib, boshqa masalalarga qo'llash ko'nikmalarini hosil qiladilar.

Ikkinchi turdagi muammoda o'quvchilar berilgan masala va bu masalani hal etish yo'li yordamida javobni topadilar. Bunday masalalar o'quvchilarni formulalardan to'g'ri foydalanish, topqirlik, aniq va izchil fikrlashga o'rgatadi.

Uchinchi turdagi muammolar odatdaritorik muammolar deb yuritiladi. Ular ritorik – javob o'z-o'zidan ko'rinib turgan savollarga o'xshash bo'lganligi uchun ham shunday nomlangan. Ular boshqotirmalarga ham o'xshab ketganligidan ayrim hollarda boshqotirma-muammo debham yuritish mumkin. Bunday muammolarga har xil krossvordlar, rebuslar, berilgan bo'laklardan figuralar yasash, taken o'yini, Rubik kubigi kabi yechimi mavjud bo'lgan muammolar kiradi.

To'rtinchi turdagi muammolar – *klassik* muammolar deb yuritiladi. Bunday muammolarning hal etilishi fan-texnikada ro'y berayotgan buyuk o'zgarishlargaolib keladi.

Beshinchi turdagi muammoda yechim nimadan iboratligi va uni topish yo'li ma'lum bo'lib, ular qanday muammoni hal etish uchun kerakligi aniq bo'lmagan muammolar. Bularga misol sifatida maqsadsiz yasalgan qandaydir bir uskuna, shakllarni olish mumkin. YAsash yo'llari va natija bor, lekin ular qanday bir vaziyatni hal etish uchun kerakligi hali aniq emas. Bir kun kelib biror bir muammoni hal etishda ishlatilishi mumkindir.

Oltinchi turdagi muammoga biron bir muammoni hal etish uchun aniqlangan uslubning boshqa bir, hal etilgan muammoga mutlaqo bog'liq bo'lmagan muammoga qo'llanishini kiritish mumkin.

